

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYACHILIGI

*To‘ymurodova Dinora Otabek qizi**Termiz Davlat Universiteti**Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

Annontatsiya: Maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalari, ularda ifodalangan g‘oya haqida qisqacha fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: Shukur Xolmirzayev, hikoyalar, g‘oya, „Kulgan bilan Kuldirgan“, „Boychechak ochildi“, „Ot egasi“, „Omon ovchining o‘limi“

O‘tkir qalam sohibi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori Shukur Xolmirzayev o‘zining sermazmun ijodi bilan hozirgi o‘zbek adabiyotining gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo‘shgan taniqli yozuvchidir. XX asrning 60-70-yillaridan keying o‘zbek adabiyotini bu adibsiz tasavvur qilish qiyin. Sh. Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramoni obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyasining o‘ziga xosligi, qahramonlar tilining rangbarangligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining hikoyachilikdagi mahorati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Masalan: G.N.Tavaldieva (2001), Sh.Doniyorova (2001) singari adabiyotshunoslar adibning hikoyachilikdagi o‘ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari to‘g‘risida ilmiy xulosalar bergan. Bundan tashqari, „Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida“ (2010) kitobida yozuvchiga zamondosh ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan adib mahoratining o‘ziga xos tomonlari haqida betakror xotiralar jamlangan.

Yozuvchining 1972-yilda yozilgan „Kulgan bilan Kuldirgan“ hikoyasi voqealari haqida so‘z ochadigan bo‘lsak, hikoyaning bosh qahramoni tog‘dagi kakliklar haqida qayg‘uradi, bir – ikki qush emas balki, hududdagi barcha qushlarni qahraton qishdan eson-omon chiqarib olish uchun jon kuydiradi. Tabiat va uni asrash to‘g‘risida film olmoqchi bo‘lgan kinorejissor ona ayiqni o‘ldirib ikki bolasini yetim qoldirgani uhun tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tomonidan emas, balki, oddiy bir tabiatni jondan asraydigan inson qo‘lida ayovsiz jazolanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hikoyada vatan go‘zalligi, uning boyligi tabiatga befarq bo‘lmagan insonlarni tashvishga solayotgan - tabiat boyligini asrash masalasi ilgari surilgan.

„Yozuvchi millat ruhidan kelib chiqmasa, bo‘lmas ekan“ - degan so‘zlari yozuvchining butun ijodi, asarlarini, shaxs sifatidagi tabiatini birlashtirib turadi. Shukur Xolmirzayev asarlari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muammolarning tahliliga qaratilgan. Yozuvchi qahramonlari asar g‘oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og‘ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to‘g‘ri yo‘l

topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagidek qoldirib, kitobxon hukmiga havola qiladi. Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o'quvchiga keng imkoniyat qoldiradi. Adib asarlari qahramonlari aksari uning o'zi tug'ilib o'sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo'ladigan manzil ham ko'pincha shu voha bo'ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o'zbek xalqining, o'zbek tuprog'ining o'ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e'tiborni ularning qalbi, ma'naviyati, do'stlarga, yangi hayotga, o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o'ziga qoldiradi.

1985-yilda yozilgan „Omon ovchining o'limi“ hikoyasi qahramoni esa yuqoridagi hikoya qahramoniga mutlaqo teskari obrazdir. Unga nafaqat tabiat va uning jonzotlariga, balki odam bolalariga nisbatan shafqat ham butkul begona. U tabiatdagi barcha qush va hayvonlar faqat yeyish uchun yaratilgan deb hisoblaydi. Hattoki ovdan quruq qo'l bilan kelgan vaqtlarda xuddi otasi o'lgandek motam tutadi. Omon yoshlikdan shunday deydasi qattiq bo'lib o'sgan, otasi onasini haydab yuborgan vaqtlarda ham u har doim otasi bilan birga qolganini eslaydi. U qishloqdagi barcha odamlar cho'lni o'zlashtirish uchun ko'chib ketayotgan bir vaqtda oilasidan voz kechib bo'lsada shu qishloqda qolishni afzal ko'radi, chunki ov qilish uning hayotining mazmuniga aylanib qolgan edi. Qishloq xarobalaridagi boyqush ovozlari tinglab o'zini ham boyqushlardek his qiladi. Bu hikoyada insonning tabiatga nisbatan qilgan shafqatsizligi, hattoki o'lim yoqasida turgan qahramonning o'z joni ham ko'ziga ko'rinmasdan qushlarga qilgan ayovsizligi tasvirlab berilgan. Yozuvchining 1971-yilda yozilgan „Boychechak ochildi“ hikoyasida ilm-fan rivojiga kata hissa qo'shgan adabiyotshunos olim katta shaharda yashab, ona tabiatdan biroz uzoqlashib qolgani natijasida tabiatga yaqinlashgan vaqtidagi uning ruhiyatidagi o'zgarishlar ko'rsatilgan bo'lsa, „Podachi“ hikoyasida insonning hayvonga muhabbati, „Ko'kboy“ hikoyasida esa hayvonning insonga sadoqati tasvirlab berilgan.

Yana bir misol tariqasida „Ot egasi“ hikoyasini oladigan bo'lsak, hikoya bosh qahramoni Inodning o'z oti qorabayrga bo'lgan mehri tasvirlangan. Qahramonimiz rafiqasi va farzandlaridan fojiali tarzda ayrilgandan so'ng shu ot uning yolg'iz sirdoshi bolib qolgan edi. Amma bu otni o'ziniki qilmoqchi bo'lgan kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyev Inod va qorabayrni bir-biridan ayiradi. Inod otini birovga berishni hech ham xohlamasdi. Otni o'zida qoldirish uchun ancha harakat qildi, ammo bo'lmadi. Qahramonimiz qorabayr tirik bo'lib o'zidan uzoqda bo'lgandan ko'ra o'ligi o'zining yonida qolishi afzal bildi. Inod otga miltiqni qaratib otgan vaqtida ot unga qarab kishnaydi va yiqiladi. Bu lahzalar yozuvchi tomonidan juda ta'sirli qilib yozilgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi insonni hayvonga, hayvonni insonga bo'lgan mehr-muhabbati juda ham ta'sirli tarzda tasvirlangan. Hikoyalarni mutolaa qilish jarayonida insonni ko'ngliga yaqin bo'lgan jumalarda ko'zingizga yosh kelishi tabiiydir. Buning isboti uchun adibning biror hikoyasini qo'lizga olib uni chin dildan mutolaa qilishingiz kifoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 8-sinf adabiyot darsligi.
2. Shukur Xolmirzayevning „Kulgan bilan kuldirgan“ hikoyasi
3. Shukur Xolmirzayevning „Ot egasi“, „Omon ovchining o'limi“ hikoyalari.